



Phonetic difficulties encountered in the speech of a foreigner

Mukhayyokhon AKHMEDOVA ¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

10 February 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

paradigm,
monophthong,
diphthong,
diphthongoid,
vowels,
consonants,
sonorous sounds,
phoneme,
reduction,
pure L,
dark L,
shva sound.

ABSTRACT

This article examines the phonetic errors made by foreigners when speaking Uzbek, as well as their adaptations influenced by the specific features of the Uzbek language. It provides concrete examples of the interaction between Turkic languages and the pronunciation patterns of speakers from other ethnic backgrounds.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3/S-pp351-356>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Xorijiy shaxs nutqida uchraydigan fonetik qiyinchiliklar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

paradigma,
monoftong,
diftong,
diftongoid,
unli tovushlar,
undosh tovushlar,
sonar tovushlar,
fonema,
reduksiya,
clear L,

Ushbu maqolada xorijiy shaxs o'zbek tilida so'zlashganda yo'l qo'yadigan fonetik xatolar va o'zbek tili xususiyatlaridan kelib chiqib moslashtirishlar haqida gap ketadi. Maqolada turk tillarining o'zaro moslashishi va boshqa xalq vakillarining talaffuzlaridan aniq misollar keltiriladi.

¹ Andijan State Institute of Foreign Languages.
E-mail: ahmedovamuhayyo305@gmail.com

dark L,
shva tovushi.

Фонетические трудности, встречающиеся в речи иностранца

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

парадигма,
монофтонг,
дифтонг,
дифтонгоид,
гласные,
согласные,
сонарные звуки,
фонема,
редукция,
чистый L,
темный L,
звук шва.

В этой статье рассматриваются фонетические ошибки, которые иностранец допускает при разговоре на узбекском языке, и адаптации, основанные на особенностях узбекского языка. В статье приведены конкретные примеры взаимопроникновения тюркских языков и произношения представителей других народов.

KIRISH

Insonga ato etilgan eng buyuk ne'matlardan eng qadrlisi til bo'lib, u insonlarni o'zaro aloqaga kirishib, jamoalar tashkil qilib, o'z ehtiyojlarini qondirishida katta xizmat qiladi. Til turli xalqlarning yashash joylari, atrof muhit, yashayotgan joyidagi o'simlik va hayvonot olamiga va ularning g'oyaviy shakllanishiga qarab rivojlanadi.

Qadimdan turkiy til deganda ikki daryo oralig'i va uning sharqiy va g'arbiy qirg'oqlarida yashovchi aholining etnik rivojlanishi va bu hududlarga Eron va Rossiyaning janubiy sarhadlaridagi Enasoy qirg'oqlaridan ko'chib kelgan aholi bilan integrallashuvi oqibatida dunyoga kelgan va tadrijiy rivojga ega bo'lgan til va lahjalar nazarda tutiladi. Zamonaviy o'zbek tilining rivoji asosida necha yillik tarixiy voqealar yotadi. Manbalarda aytilishicha, "O'zbek" termini aslida dashti qipchoqda istiqomat qiluvchi turkiy qabila va elatlarining bir qismiga berilgan nom." [2.12]

Movarounnahrda turkiy qabilalarining tez tarqashiga qaramasdan XII-XV asrlarda arab, forsiy tilining ta'siri kuchli bo'lgan. Shunga ko'ra turkiy xalqlar tilida yuqorida ko'rsatilgan tillardan kirib qolgan so'z va iboralar, ulardan o'tgan fonetik tovushlar o'zbek tilida keng rivojlangan. Masalan arab tilidan o'tgan tutuq belgisi ['] arab tilidan kirib qolgan so'zlarni talaffuzida katta ahamiyatlidir: mas'uliyat, ma'rifat va boshqalar.

O'zbekiston mustaqillikka erishib dunyoga viqor bilan qarayotgan davrda o'zbek tiliga qiziqish kuchaya boshladi. KUN.UZning oxirgi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonga bir yilda keladigan turistlar soni taxminan 1.5 millionni tashkil etadi. Bulardan O'zbekistonga eng ko'p tashrif etuvchilar qo'shni qardosh respublikalardan bo'lib, ularning qatoriga Rossiya, Belorussiya, Turkiya va boshqa Yevropa mamlakatlardan kelgan muhojirlar qo'shiladi. Bundan tashqari, o'zbek muhojirlari ham o'z navbatida turli mamlakatlarga sayohat qiladilar.

Sobiq Sho'ro davrida o'zaro muloqot tili rus tili bo'lganiga qaramay, hozirda muhojirlar davlat tili bo'lgan o'zbek tilida mahalliy xalq bilan muloqotga kirishishni afzal

ko'radilar. Hozirgi kunda o'zbek tilida gapiruvchi shaxslarning xorijiy til o'rganishda uchraydigan muammolari haqida turli adabiyotlar mavjud. Ammo xorijiy shaxsning o'zbek tilini o'rganishdagi muammolari kam adabiyotlarda ko'rsatilgan. Shu maqsaddan kelib chiqib, xorijiy shaxs o'zbek tilida gapirayotganda fonetik qiyinchiliklarga uchrashi haqida fikr yuritish muhim deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

O'zbek tilida unlilarning cho'ziq-qisqaligi, undoshlarning yumshoq-qattiqligi fonologik jihatdan ahamiyatsizdir [1. A. Abduazizov "O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi"]. Fonemalar ingliz va boshqa german tillarida bo'lganidek so'zlovchilar uchun so'zlarni farqlash uchun xizmat qilmaydi. Bu o'zbek tilini boshqa til vakillarini o'rganishini osonlashtiradi. Xususan ingliz tilida cho'ziq unli tovushlar mavjud bo'lib, ular tovushlar oppozitsiyasini tashkil qiladi. Masalan, [i]-[i:]; [u] -[u:] tovushlari talaffuzda cho'ziq va qisqa talaffuz qilinishi bilan farqlanadi.

O'zbek tili turkiy tillar ichida unlilarning bunday klassifikatsiyasiga ega emas, biroq inglizlar uchun juda ko'p hollarda qisqa [i] tovushini "shva", ya'ni [ə] tovushi bilan almashinishi va tovushlarning neytrallashishi xorijiy shaxs uchun qiyinchilik tug'diradi. Bu o'zbek tinglovchilariga xorijiy shaxs nutqining tushunilishida muammo keltirib chiqaradi.

Ingliz tili fonetikasida harflar jami 26 ta harf bo'lib, ulardan 6 tasi unli, qolgan 20 ta undosh harfdir. Mana shu 6 ta unli harfning o'zi bo'g'inlarda joylashishiga qarab 20 ta fonemani tashkil qiladi. Ular quyidagilardir: monoftonglar, diftonglar, diftongoidlardir. O'zbek tilida unlilarning bunchalik faol tasniflanishi kuzatilmaydi. A.M. Shcherbakning "Сравнительная фонетика тюркских языков" asarida qirg'iz, turk, qumiq va boshqa turkiy tillarda unlilar soni 8 taga yetadi deb ko'rsatadi. Ular a, o, u, i, a, o, u, i lar bo'lib, keyinchalik ozar tili materiallari ta'sirida ularning sonini 9 taga yetkazdi. Ularda paradigmalar artikulyatsion kenglik, yarim kenglik va torlikka qarab aniqlanadi. Qardosh xalqlar (qirg'iz, qoraqalpoq, va ayniqsa uyg'ur)lar o'zbek tili fonemalarining talaffuzda deyarli muammoga uchramaydi. Biroq yashash hududi bizga yaqin bo'lgan tojik xalqi vakillari uchun o'zbek fonemalarini talaffuzi qiyinchilik tug'diradi, chunki tojik tili fonetikasining ayniqsa unlilarga tegishli bo'lgan qismi ancha murakkab. Tojik tilida [o] fonemasi ko'p hollarda to'liq [o] fonemasini anglatadi. Masalan, [aka] – tojik tilida [oka] deb talaffuz qilinadi. "Birodar" so'zi o'zbek tilida birinchi bo'g'indagi unli [i], ingliz tilidagi shva tovushiga o'xshash [ə] talaffuz qilinadi, tojik tilida gapiruvchi shaxs o'zbekka qarata shu so'zni boshqacharoq cho'ziq [i:] ga yaqin talaffuz qiladi, chunki bu so'z tojik tilida mavjud bo'lib, o'zining maxsus talaffuz qonuniyatiga ega. Tojik tilida gapiruvchilar [bi'roodar] so'zini [i] tovushiga urg'u bermay, [o] tovushini reduksiya bilan [bəro:dar] deb talaffuz qiladilar.

USULLAR

O'zbek tilidagi ba'zi so'zlar turkiy tillarda mavjud bo'lgani uchun ularni o'z tillarida talaffuz qiladilar: O'zbek tilida *Bolakay, yo'ldagi toshni olib tashla* gapi boshqa qardosh tillarga shunday tarjima qilinadi: *Малай юлдагы ташны алып куй! (Tatarcha) - Пусар сангро аз роҳ дур кунед! (tojikcha) - Бала тасты жолдан шығар! (qozoqcha) - Бала жолдон таш алып кет! (qirg'izcha)*. O'zbekchada "tosh" so'zi tatarchada "tash" deb talaffuz qilinadi. Bunda [o] fonemasi tatarchada [a] fonemasi bilan zidlanadi, qozoqchada "tas", ya'ni bunda unli fonmemalargina almashmasdan, balkim undosh sirg'aluvchu [ʃ] undosh o'zi paradigmatic zidlanadigan [s] tovushiga almashdi. Qirg'izchada ham unli

fonema almashuvi kuzatilmoqda. Bu turkiy tillar oilasidan ancha yiroq bo'lgan tojik tilida "tosh" so'zi umuman farq qilib "sang" deb atalishini ko'rmoqdamiz.

Qirg'iz tilida [i] tovushi qattiqroq ruscha [ы] ga yaqin talaffuz qilinadi. Qirg'izlar "davrnig" so'zini talaffuz qilayotganda "ning" qaratqich kelishigini "нын" deb talaffuz qiladilar, chunki sonar tovushlardan so'ng [i] tovushi [ы] ga o'xshab talaffuz qilinishi qirg'iz tiliga xosdir. O'zbek tilidan farqli qirg'iz tilida 8 ta qisqa unli (a, o, u, и, э, ө, ы, ү) va 6 ta uzun unli tovushlar (aa, oo, yy, ээ, өө, үү) mavjud. Boshqa turkiy tillarda bo'lganidek qirg'iz tilida ham unlilar uyg'unlashuvi sodir bo'ladi. Qirg'iz tilida bir so'z ko'lamida qatnashgan unli ikkita bo'lgan guruhdan odatda bittasiga tegishli bo'ladi. Ular oldi qator unlilarga (э, и, ө, ү) yoki orqa qator unlilarga (a, ы, o, u) bo'linadi. So'z oxirida keladigan suffikslar ham shu qonunga bo'ysunadi, ya'ni o'zakdagi unlining holatiga moslashadi. Masalan, egalikni anglatuvchi qaratqich kelishigi qo'shimchalari (-ым, -им, -ум, -үм; -быз, -биз, -буз, -бүз) quyidagicha moslashadi. Orqa qator: *kitep* + *ым* → *kitebim*, bu so'zning negizida orqa qator "e" unlisi mavjud bo'lgani uchun suffiks "ым" – "im" qo'shimchasini oladi va "kitebim" – kitobim so'zini hosil qiladi. *Uy* + *um* → *uyum*, so'zning negizida oldi qator unli "u" unlisi bo'lgani uchun "um" suffiksi qo'shiladi. Yuqorida ko'rsatilgan so'zlar o'zbek tilida ham mavjud bo'lgani uchun qirg'izlar bu so'zlarni o'zining tiliga yaqin talaffuz qiladi. "Ma'rifat" so'zi arab tilidan o'tgan bo'lib arab tilida [a'yn] tovushini anglatuvchi ['] tutuq belgisi bilan beramiz. O'zbek tilida arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar talaffuzi ancha faollashgan: *ma'rifat*, *ma'naviyat*, *mas'uliyat*, *she'riyat*, *ash'or*, *ma'ruza*, *mo'jiza*, *va'da*, *mo'tabar* va boshqalardir. O'zbek tilida [a'yn] tovushi juda to'liq shaklini berilmasa ham unlilardan so'ng tutuq belgisi aniq eshitiladi. Qirg'iz tilida arab yoki lotin alifbosidan krillga o'tilgandan so'ng arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar qirg'iz tili fonetikasiga moslashtirilgan. Ba'zi bir arab tovushlarini krillda o'xshashlari bilan almashtirilgan, biroq ko'pi o'zining asliy talaffuzini yo'qotgan. Qirg'iz tilida ham arab va fors tilidan o'tgan qator so'zlar din, ilm-fan, madaniyat va kundalik turmushga oid turli jabhalarda qo'llaniladi. Qirg'iz tilidagi: *adabiyat* (adabiyot), *дин* (din), *илим* (ilm), *кабар* (xabar), *салам* (salom) kabi arab tilidan o'tgan so'zlar o'zlarining talaffuziga egadir va ular o'zbek tilida ham mavjud bo'lib qirg'izlar o'zbekcha gapirayotganlarida o'zlariga xos talaffuz qiladilar.

NATIJALAR

Akademik Shcherbakning "Сравнительная фонетика тюркских языков" asarida ko'p turkiy so'zlar chiqargan tovushiga qarab nomlangan deb fikr bergan. Uning yozishicha "to'qmoq" so'zi, 'to'q-to'q' qilib yog'ochning ovoz chiqarishiga qarab nomlangan. O'zbek tilida ham ba'zi bir predmetlarni ularning chiqargan ovoziga moslashtirib fe'llarga nomlar berilgan so'zlar bir qator: suv *shovullaydi*, echki yoki qo'y *maaraydi*, it *vovullaydi* va boshqalar.

Shcherbaning fikricha, yasash usuli bo'yicha sirg'aluvchi, yasash organida nisbatan olib qaraganimizda tish vat il uchidan paydo bo'ladigan, artikulyatsion tovush chiqishiga qarab sonat bo'lmagan [ʃ] va [s] tovushlari qozoq va o'zbek tillarining kelib chiqishi bir tarixga ega bo'lgani uchun bu holatni qozoq tilida sirg'aluvchi [ʃ] kuchsizlashib [s]ga o'zgargan.

Qozoq tilida o'zbek tilida "ʃ" tovushini anglatib keluvchi so'zlar "s" bilan almashadi. Masalan, *esik* – *eshik*; *tas* – *tosh*; *bas* – *bosh*; *qas* – *qosh*; *jaqsy* – *yaxshi*; *as* – *osh* va boshqalardir.

Hozirda ko'p muhojirlar o'zbek tilini o'rganib, ko'cha-ko'ya mahalliy xalq bilan muloqotga kirishga harakat qilmoqda. Hindistonlik mehmonlar dasturxon ustida o'tirib, o'zlarining go'sht yemasligi haqida gapirayotganda: [bi:z go's yimadi]- deb tushuntirganini guvohi bo'lamiz. Ko'p madaniyatli va ko'p tilli Hindistonning umumiy hindu tilida ham [ʃ] tovushi [s] deb talaffuz qilinar ekan.

Amerikalik Maykl Kee o'zbekchani talaffuz qilayotganda umuman bir-biriga o'xshamas fonemalarning o'zga tilda g'ayrioddiy eshitisli guvohi bo'lamiz. Amerikalik yozuvchi Tomas Harrisning "Qo'zichoqlar sukunati" kitobini o'zbekcha tarjimasini o'qiyotgan holatini tahlil qilsak, asliyat shunday: *"Ochilmay qolgan qotilliklar bilan band bo'lib qolganingizdan xabarim bor, jumladan Buffalo Bill. – Ha, shunday. Eski ishlar. Hali yangi jasadlar topilgani yo'q."*

Maykl "ochilmay" so'zining talaffuzida [tʃ] tovushini yengil aniq qilmay talaffuz qildi. [tʃ] tovushi [ʃ] bilan [tʃ] o'rtasida talaffuz qilindi. Chunki ingliz tilida [tʃ] so'zning boshida qattiq va aniq talaffuz qilinadi, ikki unli o'rtasida assimilyatsiyaga uchrab, [ʃ] ga yaqin talaffuz qilinadi. "Qolgan" so'zi talaffuzida [l] fonemasi deyarli eshutilmadi, bunga sabab ingliz tilida [l] fonemasi [o] va [a] unlilar oldida sokin bo'lish xususiyatiga ega. Ayniqsa [m], [k], [f] tovushlaridan avval [l] fonemasining talaffuz qilinmasligi ingliz zabon shaxslar uchun oddiy holdir. Bu uning ona tili negizidagi qonuniyati bo'lib, balkim u o'zbek tilining fonetik qoidalari boshqacha bo'lishiga qaramasdan unga ham bexosdan shu qoidani ishlatgan bo'lishi mumkin. Ingliz zabon shaxslar o'zbek tili undoshlari guruhining shakllanishi va ularning unlilar bilan o'zaro aloqaga kirishishiga ahamiyat bermasligi mumkin. Qolaversa, "qolgan" so'zidagi [g] undoshini bir oz [k] ga yaqin talaffuz qilib, [l]ni [k]oldida sokinlashishiga erishgan.

MUNOZARALAR

Ingliz tilida "Dark L" (to'q L) va "Clear L" (aniq L) degan tushuncha mavjud bo'lib, aniq [l] unlilar oldida talaffuz qilinib, aniq eshutiladi. To'q (dark) [l] esa bo'g'in oxirida yoki undoshlardan avval keladi. U velar undosh deb ataladi. Mana shu o'zbekcha "qolgan" so'zi uchun aniq [l] talab qilinadi. Bu holat fonetik soddalashtirish deb aytiladi, ingliz uchun o'zbek tilidagi tovushlarni o'zlashtirib o'ziga xos qilib talaffuz qilish fonetik soddalashtirishga kiradi. O'zbek tilida "qolgan" so'zidagi [l] tovushi to'g'ri va aniq talaffuz qilinishi shart, amerikalik ingliz zabon shaxs uchun [l] ni zaif deyarli eshittirmay talaffuz qilinishi uning o'zga tilni o'rganishiga xalaqit beradigan fonetik odati bo'lishi mumkin.

Agar ingliz tilidagi "calm" (tinch) so'zini olsak, unda "l" fonemasi talaffuz qilinmaydi, biroq tarixiy fonetikaga murojaat qilsak, bu so'zda "l" talaffuz qilingan. Zamonaviy ingliz tilida talaffuzi o'zgarishiga qaramasdan, yozilishi tarixiy o'tmishini saqlab qolishi odatiy holdir. Ingliz tilida shunday so'zlar borki, yozilishi qadimgi talaffuzni eslatadi. Masalan, so'z oxirida keladigan "b" fonemasi "m" fonemasidan keyin ishlatilmaydi. Bu so'zlar *lamb* (qo'zichoq) /læm/, *comb* (taroq) /koum/, *debt* (qarz) /det/, *doubt* (shubha) /daut/, *subtle* (nozik) /'satl/. Bu so'zlarda tarixiy "b" to'liq talaffuz qilingan. /c/ fonemasi /k/ va /s/ oldida sokinlashadi: *black* /blæk/, *scene* /si:n/, yana /d/ fonemasi keng tarqalgan so'zlar *Wednesday* /'wenzdeɪ/, *handsome* /'hænsəm/, /g/ va /k/ fonemalari /n/ oldida sokinlashadi *gnome* /noum/, *gnat* /næt/, *knife* /naɪf/, *know* /nou/, ba'zan so'z o'rtasida va oxirida kelishi ham mumkin, *sign* /saɪn/. O'zbekcha yumshoq /h/ ni anglatuvchi bo'g'iz tovushi /h/ fonemasi ham *hour* /'auər/, *honest* /'ɒnɪst/ tarixiy o'tmishga egadir. Sonar tovushlar ketma-ketligi /n/ va /m/ larda /n/ sokinlashadi *autumn* /'ɔ:təm/, *hymn* /hɪm/, *solemn* /'sɒləm/. So'z boshida "ps" va "pt" harf

birikmalarida *psychology* /sar'kɒlədʒi/, *pneumonia* /nju:'mɒniə/, *pterodactyl* /,terə'dæktɪl/) va so'z o'rtasida *receipt* /rɪ'si:t/, *cupboard* /'kʌbərd/ uchraydigan /p/ tovushi sokinlashadi. Ba'zi hamma uchun tanish so'zlarda *listen* /'lɪsn/, *castle* /'kæsl/, *often* /'ɒfən/ uchraydigan /t/ tovushi o'qilmaydi. *Write* /raɪt/, *wrong* /rɒŋ/ so'zlarida /w/ sonar tovushi sokinlashadi va so'z o'rtasida *answer* /'ænsər/ holatni anglatadi. Yuqorida ko'rsatilgan barcha so'zlar tarixiy talaffuzi o'zgacha bo'lgan.

Yuqorida keltirilgan *calm* so'zida /l/ undoshi unli /a/ bilan /m/ undoshi o'rtasida kelgan va bunday tovush birikmalarda o'rtadagi undoshni yo'qotish holati mavjud. Shunga o'xshash sokinlashuv boshqa so'zlarda ham uchraydi: "walk", "talk", "chalk" kabi so'zlarda ham /l/ tovushi o'qilmaydi.

Yana bundan tashqari ingliz tili fonetikasida mavjud bo'lgan umumiy qoida mavjud, ya'ni "*alm*" tovush birikmalarida /l/ o'qilmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytamizki, xorijiy shaxs o'zbek tilida so'zlayotganda qator muammolarga duch keladi. O'zbek tili ko'p shevali til bo'lgani uchun bu shevalar rivojlanishiga ko'ra boshqa tillarning ta'sirini o'z ichiga olgan. Ba'zan sof o'zbek tilida talaffuz qilinishi bo'lgan so'zlar shevalarda ham farqlanadi. O'zbek tili ommalashayotgan davrda xorijiy shaxsning o'zbek tilida so'zlashi undagi fonetik qiyinchiliklarini yengishi uchun o'zbek tilining boshqa tillardan fonologik farqlarini yaxshilan o'rganib chiqish muhim masaladir. O'zbek tiliga qardosh bo'lgan qozoq, qirg'iz, uyg'ur, tatar tillari kesimida fonemalarning zidlashib, paradigmalar hosil qilish holatlarini kuzatib o'zbek tiliga moslashtirib talaffuz qilinishi natijasida o'zbek tilining qirg'iziy holati, uyg'urcha o'zbekcha, tatarcha o'zbek tili hosil bo'ladi. Biroq turkiy tillar oilasidan uzoq bo'lgan roman va german tillari vakillari talaffuzida o'zbek tili talaffuzi ancha o'z me'yorlaridan farqlanadi. Ba'zan ular umuman tushunarsiz holatga ham kelishi mumkin. Bunga sabab bu tillarning fonetik artikulyatsiyasi tubdan farq qilishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдузухур Абдуазизов «Узбек тили фонологияси ва морфонологияси» Тошкент «Университет» 2010
2. Б. Менглиев «Хозирги узбек адабий тили». Карши 2004
2. Peter Roach "English Phonetics and Phonology a practical course" Cambridge University Press 2009.
3. Baxtiyor Mengliyev, O'rol Xoliyrov, Nilufar Abdurahmonova "O'zbek tilidan universal qo'llanma" Toshkent "Akademnashr" 2015
5. А.М. Щербак «Сравнительная фонетика тюркских языков». Ленинград 1970
6. Н.С. Трубецкой «Основы фонологии». Москва 2000